

DINIY TAFAKKUR O`ZGARISHINING ANTROPONIMLARDA AKS ETISHI

Sohiba Otaxonova

Urganch davlat universiteti magistranti

Ismlarda xalqning e'tiqodi ham bevosita o'z aksini topadi. Xalq tarixi va bugungi kunini bir-biri bilan chambarchas bog'lab turuvchi omillar bir qancha bo'lib, madaniyat yashovchanligini bevosita belgilab beruvchi antroponimlar shular jumlasidandir. Madaniyatning yuksalishi xalq e'tiqodi bilan chambarchas bog'liq hodisa sanaladi. O'zbek madaniyatining rivojlanishi esa xalq e'tiqod qilgan dinlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, dastlabki diniy tafakkurlarning nomoddiy manbasi sifatida antroponimlar ilgari suriladi. Bugungi davrga qadar o'zbek xalqi bir qancha dinlarga e'tiqod qildi. Din (arabcha): دين — „e'tiqod“, „ishonch“, „itogat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar, mifologiya va rituellarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir

Din odatda hech kim tomonidan kuzatilmaydigan va aniqlanmaydigan, g'ayritabiiy, muqaddas, eng yuqori shaxs yoki mavjudotga fokuslangan o'zak e'tiqod ustiga qurilgan ijtimoiy tizim, deb ham ta'riflanadi. Dinni shuningdek „turmush tarzi“ ham deyishadi. Dinlarning kelib chiqishi turli madaniyatlarda turlicha kechgan. Ayrim dinlar ijtimoiy tartibni belgilab kelgan bo'lsa, boshqalari insonning ichki kechinmalari va ruhiyatini tartibga solishni ko'zlaydi.

„Din“ so'zini ba'zi hollarda „e'tiqod“ ma'nosida ham qo'llashadi, lekin bu doim o'rinli emas, zero e'tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas.

Din — xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din — Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg'u va sig'inish obyektlarini o'z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma'lum ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o'z ta'limoti doirasida saqlashga harakat qiladi, o'z qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini o'taydi. Dinlar o'z marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi, shuningdek, o'z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avlodan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi. Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo'lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati

darajasiga ko'targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta'qib ostiga olgan hollar tarixda ko'p uchraydi. Yaqin o'tmishda — sho'rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiladi. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1998) bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda.

Diniy tafakkurning antroponimlarga ta'sirini diniy ishonchlar bilan bog'liq ismlar chastotasining davr diniy muhitiga qarab o'zgarishida ko'rish mumkin. Nominatorlar ism bevosita inson taqdiriga ta'sir qiladi degan ishonch bilan bolaga ism berishadi. Bu jarayon bevosita ularning e'tiqodi bilan bog'lanadi. Ma'lum bir siyosiy tuzum davrida xalqning diniy erkinligiga ma'lum cheklolvar o'rnatilgan. Bu holat ham xalq diniy an'analarini, qadriyatlarini bir qadar cheklashiga sabab bo'lgan. Nominator siyosiy tuzum va tafakkur ta'sirida chaqaloqqa diniy ishonch bila bog'liq motivlarga ega ism berishdan tiyilgan. Hatto ayrim manbalarga ko'ra ateistik (ateizmga oid, ateizm ruhidagi, dinga qarshi qaratilgan) g'oyalarning avj olishi natijasida diniy motivga ega ismlarni o'zgartirish holatlari ham uchrab turgan. Hozirgi kunda esa buning mutlaqo aksini kuzatishimiz mumkin. Xalqning diniy tafakkuri o'zgarishi bilan diniy motivga ega ismlarning nominatsiya jarayonidagi ishtirok koeffiytsenti ancha oshganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa oxirgi o'n yillik misolida oladigan bo'lsak farzandiga Asmo al-husna-Ollohning muborak ismlari, payg'ambarlar ismlari, mashhur diniy arboblal nomlarini berish holatlari juda ko'plab uchramoqda.

Qur'oni Karimning A'rof surasi 180-oyatida Alloh ismlari haqida shunday deyiladi: "Allohning go'zal ismlari bordir. Bas, uni o'sha ismlar bilan chorlangiz (yod etingiz), Uning ismlarida haqdan og'ib (noo'rin joylarda ularni qo'llaydigan mushrik) kimsalarni tark qilingiz"

Bu ismlar 99 ta. Ular musulmon ilohiyotida muhim o'rin tutadi. Alloh ismlari ko'p duolarda qo'shib aytiladi. Qur'oni Karimning Hashr surasida (22-24 oyatlar) Allohning go'zal ismlarining qisqa ro'yxati bor: ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddus, as-Salom, al-Mo'min, al-Muhaymin, al-Aziz, al-Jabbor, al-Mutakabbir, al-Xoliq, al-Bori', al-Musavvir. Boshqa hamma ismlar Qur'oni Karimning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bog'langan fe'llardan hosil bo'lgan. 99 ta ism ro'yxati Abu Hurayra r.a (601-679) rivoyat qilgan hadisda bor. Ana shu hadisga ko'ra, Muhammad 99 raqamini keltirgan. Boshqa Hadis to'plamlarida ham Alloh ismlari ro'yxati keltiriladi. Ko'plab diniy manbalarda berilgan ma'lumotlarga asoslangan holda Allah ismlari maxsus tadqiq qilingan va o'rganilgan.

Ollohning go'zal ismlari oldidan "Abdu-" qo'shimchasini qo'shib nom qo'yish yoki "qul" shaklini qo'shib nomlash ham keng tarqalgan holat: Abduvohid, Abduvahob, Abdug'ani...

Ammo, Abdurasul ismini ko'pchilik "nojoiz ism" hisoblashadi. Bunga sabab "Abdu" shakli faqat Ollohning ismlari oldidan qo'shilishi, payg'ambarlar, diniy arboblilar va boshqalar nomiga ishora qiluvchi har qanday nomga qo'shilishi ismning lug'aviy ma'nosini o'zgartirib, unga salbiy ottenka berishi tufayli joiz emasligiga ishoniladi. Bugungi kunda eng urfga kirgan ism Muhammad bo'lib, payg'ambarimizning muborak ismlari sifatida ko'pchilik nominatorlar uchun Muhammad tarkibli ismlarga murojaat qilish holatlari sezilarli darajada ko'paygan. Statistika ma'lumotlariga qaraganda yer yuzidagi eng ko'p qo'yiladiga ism ham aynan Muhammaddir. Turli manbalarning ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 150 milliondan ortiq Muhammad ismli shaxslar bor. Nafaqat musulmon davlatlarida, balki Yevropada ham bu ism juda mashhur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Religion – Definition of Religion by Merriam-Webster (<https://www.merriam-webster.com/dictionary/religion>). 12-mart 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi (<https://web.archive.org/web/20210312024948/https://www.merriam-webster.com/dictionary/religion>). Qaraldi: 16-dekabr 2019-yil.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Qur'oni Karim tarjimasi va sharhi. Abdulaziz Mansur (<http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.0>)